

# **“Kelajak muhandislari” xalqaro festivali munosabati bilan tashkil etilayotgan xakaton musobaqasi**

## **NIZOMI**

### **1. UMUMIY QOIDALAR**

- 1.1. Ushbu nizom “Kelajak muhandislari” xalqaro festivali munosabati bilan tashkil etilayotgan xakatonning maqsadi, ishtirokchilari, shartlari va baholash mezonlarini belgilaydi.
- 1.2. Xakatonning asosiy maqsadi - muhandislik sohasidagi innovatsion yechimlarni ilgari surish, yosh mutaxassislarning ijodkorligini rivojlantirish va amaliy bilim almashishni rag‘batlantirish.
- 1.3. Musobaqa O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti hamda hamkor tashkilotlar va homiyar ishtirokida o‘tkaziladi.

### **2. MUSOBAQANING MAQSAD VA VAZIFALARI**

- 2.1. Muhandislik sohalarida yangi texnologik yechimlar va loyihalarni ishlab chiqish.
- 2.2. Yoshlarning texnologik va innovatsion tafakkurini rivojlantirish.
- 2.3. Ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlarini amaliyotga tatbiq qilish.
- 2.4. Sanoat korxonalarini bilan hamkorlikni kengaytirish va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

### **3. MUSOBAQANING YO‘NALISHI**

**Yo‘nalish:** Energetika

**Hakaton mavzusi:** “Barqaror energiya manbalari va yashil texnologiyalar”

► Quyosh va shamol energiyasidan samarali foydalanish, energiya saqlash tizimlari, ekologik toza qurilmalar yaratish.

### **4. XAKATON TASHKILOTCHILARI**

- 3.1 Musobaqani tashkil etish va boshqarish uchun maxsus Tashkiliy Qo‘mita tuziladi.
- 3.2 Tashkiliy Qo‘mita quyidagi funksiyalarni bajaradi:
  - Musobaqa reglamentlarini tasdiqlash.
  - Hakamlar hay‘atini shakllantirish.
  - Musobaqaning texnik va tashkiliy masalalarini hal qilish.
  - Shikoyatlar va apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish.
- 3.3 Tashkiliy Qo‘mita o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, barcha qarorlar yakuniy hisoblanadi.

### **5. MUSOBAQA QATNASHCHILARI**

- 4.1. Xakatonda quyidagi ishtirokchilar qatnashishi mumkin:
  - Talabalar, yosh muhandislar, startap jamoalari;

- 18 yoshdan katta bo'lishi;
- Individual yoki jamoa tarkibida qatnashish (jamo a'zolari soni: 3-5 kishi).

4.2 Jami ishtirokchilar 100 kishidan iborat bo'ladi.

## **6. MUSOBAQANI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI**

5.1. Musobaqa ochiq shaklda va uch bosqichda o'tkaziladi:

- Online ariza topshirish;
- Hakatonning asosiy bosqichi – muammolarni hal qilish jarayoni;
- Loyihalarni taqdimot qilish va hakamlar hay'ati tomonidan baholash.

## **7. BAHOLASH MEZONLARI**

6.1. Taqdim etilgan loyihalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Innovatsionlik va kreativlik – 30 ball;
- Texnik yechim sifati – 30 ball;
- Ishlanmaning amaliy qo'llanilish darajasi – 20 ball;
- Jamoaviy ish va taqdimot sifati – 20 ball.

## **8. G'OLIBLARNI TAQDIRLASH**

G'oliblarni taqdirlash – G'olib jamoalar sertifikat va pul mukofati bilan taqdirlanadi;

- **1 – o'rin 10 mln so'm;**
- **2 – o'rin 8 mln so'm;**
- **3 – o'rin 5 mln so'm;**

## **9. HUQUQIY JIHATLAR**

7.1. Xakaton davomida ishlab chiqilgan mahsulotlar va g'oyalar mualliflik huquqi ishtirokchilarga tegishli bo'ladi, lekin tashkilotchilar ularni targ'ibot maqsadida ishlatish huquqiga ega.

7.2. Tashkilotchilar ishtirokchilarning intellektual mulkiy huquqlarini hurmat qilishlarini kafolatlaydi.

## **10. QO'SHIMCHA QOIDALAR**

8.1. Xakaton davomida har qanday noxush holatlar yuzaga kelgan taqdirda, tashkilotchilar ularni o'z qaroriga ko'ra hal qilish huquqiga ega.

8.2. Xakaton qoidalariga rioya qilmagan ishtirokchilar tanlovdan chetlatilishi mumkin.

## **11. YAKUNIY QOIDALAR**

9.1. Xakaton o'tkazilgani va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar OAVlarda yoritib boriladi.

9.2. Xakaton natijalaridan noroziligi bo'yicha ariza va shikoyatlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

9.3. Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

9.4. Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

9.5. Mazkur Nizom amaldagi qonunchilik hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda qayta ishlab chiqilishi mumkin.

9.6. Viloyatlardan tashrif buyuruvchi ishtirokchilar — yo'l xarajatlari, yashash, ovqatlanish hamda boshqa shaxsiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydilar.